
KUN HIKMATI



Kun hikmati

Sulton Abdulhamidxonning poyabzali yirtilganda uni o'zi qaytadan tikib ta'mirlab olar edi.

Saroy xizmatchilari "Nega yangi poyabzal sotib olmaysiz mamlakatning boyligi o'z qo'lingizda-ku? ", - deyishganida, sulton: "Xazinadagi boylik meniki emas xalqniki, men musulmonlarni xaqini o'z ehtiyojim uchun sarflay olmayman, men bu yerga ularni behuda sarflash uchun emas, uni muhofaza qilish uchun kelganman", - der edi.

Shu sababdan duradgorlik bilan shug'ullanib, yog'ochdan har xil buyumlar yasar, xizmatchilar esa, buyumlarni bozorda sotib kelishar, tushgan pulni sulton o'zi va oilasi extiyoji uchun sarflar edi.

Abdulhamidxonni taxtdan ag'darishgach, uning saroyiga talonchilar ishonch bilan, katta boylik umidida "sulton cheksiz boylikni yashirgan bo'lsa kerak", - degan xayolda kirishadi.

Ular biror teshik tuynukni xam qoldirmasdan, xammayoqni tintib chiqishgach, tahorat qilish uchun suv to'ldirilgan obdasta, sochiq va joynamozdan bo'lak hech narsa topa olmaydilar va noumid u yerdan qaytib chiqib ketadilar.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-07-31 16:05:55